

THE IMPORTANCE OF THE FORMATION OF A READING CULTURE IN THE UPBRINGING OF CHILDREN

Vakhabova Gulshan

Samarkand State University

Urgut branch humanitarian

Department of science shooter

Allayorova Sevinch

Samarkand State University

Urgut Branch primary education

direction

Reviwer: Taniqulov Jonibek

Ashirkulovich

Annotation

This article describes the current state of reading culture, the development of reading culture in children ,the development of reading culture in our society, which is incomparably important in improving youth, young generation in educational education in all respects, some problems in this regard, and feedback on their elimination.

Keywords: reading culture, spiritual need, Family Reading, analysis of works of art, cultural discourse, the role of parents in the development of Reading , Literacy.

KITOBXONLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING BOLALAR TARBIYASIDAGI AHAMIYATI

Vaxabova Gulshan

Samarqand davlat universitetining, Urgut filialining gumanitar

fanlar kafedrasi o'qtuvchisi

Allayorova Sevinch

Samarqand davlat universitetining, Urgut filialining Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 1-bosich talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada jamiyatimizda yoshlarni, yosh avlodni ta'lim tarbiyasida har jihatdan kamol toptirishda beqiyos ahamiyatga ega bo'lgan kitobxonlik madaniyatining bugungi kundagi holati, bolalarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishimiz bu boradagi ayrim muammolar va ularni bartaraf etish yuzasidan fikr mulohazalar bayon qilingan.

Kalit so'zlar: kitobxonlik madaniyati, ma'naviy ehtiyoj, oilaviy mutolaa, badiiy asar tahlili, madaniy nutq, kitobxonlikni rivojlantirishda ota – onaning roli , savodxonlik.

Kitob-inson umr yo'llarini yorituvchi so'nmas nur, inson hayotiga mazmun baxsh etuvchi saodat manbai, har qanday vaziyatda ham hamroh bo'lguvchi sodiq do'stdir. Tarbiyaning barcha mezon va unsurlari, avvalo, oilada shakllanganidek, kitobxonlik madaniyatini tarbiyalashda ham oilaning o'rnini nihoyatda kattadir. Qush uyasida ko'rganini qiladi, degan naqlga tayanamiz , albatta. Kitobxon ota-onalarning farzandi ham kitobga o'zgacha mehr ko'rsatadi. Shu bois kitobxon avlod tarbiyasida, avvalo, ota-onaning tarbiyasi bo'lishi, badiiy adabiyotga oshno bo'lishi lozim. Oilaviy kitobxonlikda kitob tanlovi madaniyatiga hamma ham yetarlicha ahamiyat qaratavermaydi. Badiiy asar tanlashda farzandining yosh va fiziologik xususiyatlari, ruhiy-ma'naviy dunyosi, qiziqish va intilishlarini hisobga olish lozim. Barkamol avlod tarbiyasida kitoblarning ahamiyati naqadar katta ekanligi ma'lum. Bolalar kitob mutolaasi natijasida chin insoniy fazilatlarini shakllantiradi. Hayotda o'z o'rnini topishda, dunyoqarashini kengaytirishda kitobxonlikning beqiyos o'rnini bor. Shu boisdan ham yurtboshimiz tomonidan kitobxonlik salohiyatini shakllantirish uchun bir qancha chora-tadbirlar o'tkazilmoqda.

Kitobxonlikni shakllantirish uchun Prezidentimiz 2017-yil 12-yanvardagi “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish , kitob mutalaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ’ib ot qilish bo’yicha komessiya tuzish to’g’risida”gi qarori yurtimizning barcha sohalarida, ta’limning barcha tarmoqlarida badiiy adabiyotga , eng muhimi kitob o’qishga bo’lgan munosabatni yuksaltirdi. Yoshlardagi kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda albatta hukumat tomonidan amalga oshirilayotgan tadbirlar yani, kitobxonlik tadbirlari ularda turli xildagi vaziyatlarni idrok etish va ularni bartaraf imkonini beradi. Ayniqsa, oila davrasida birgalikda o’qish va o’qilgan ma’lumotlarni tahlil qilish bir qancha afzalliklarni keltirib chiqaradi. O’rganishlar asosida bolalarda oila va maktab hamkorligida quyidagi ishlar amalga oshirilsa, o’smir yoshlarning kitob va kitobxonlikka bo’lgan qiziqishi ortib samarali natijalarga erishish mumkin. Bunday e’tiborli harakatlarning barchasi barkamol avlod o’rtasida kitobxonlik ma’daniyatini shakllantirish dan iborat. Bolalarda kitobxonlik tushunchasini shakllantirishda oilaning, maktabgacha ta’lim maskani hamda boshlang’ich ta’lim kutubxonasining ahamiyati kattadir.

Maktabgacha ta’lim yoshidan boshlab bolalarni kitobxon madaniyatini shakllantirish kerak. Bu davr bolalar tarbiyasida va kamol topishida eng muhim davrlardan biri bo’lib hisoblanadi. Ertak, hikoya kabi kichik epizodlar bola uchun qahramon bo’lib shakllanadi va albatta tarbiyaviy samarasini beradi. Bolalarda kitobxonlikni shakllantirishimizda avvalo ilk yoshlaridan boshlashimiz kerak. Bu ishlarni tashkil qilishda ota ona asosiy rolni o’ynaydi. Bolalarga so’zlab bergan har bir ertak, hikoyalarimizni bolalar bilan birgalikda tahlil qilishimiz kerak. Bu orqali bola keyinchalik eshitgan yoki o’qigan asarlarni o’zi tahlil qila olishi, tanqidiy, tahliliy fikrlashi qolilyati rivojlanib boradi.

Maktab yoshidagi kichik bolalar kitobxonligi yetti yoshdan o’n ikki yoshgacha bo’lgan davr. Bu davrda bolalarga tabiat, vatan, vatanparvarlik, odob-axloq, ota-onaga, ustoz-murabbiylarga, kitobga mehr-muhabbat g’oyalari mujassamlashadi. Kitoblarni o’qitish bu bolalar tarbiyasida ham o’chmas iz qoldiradi.

Kichik yoshdagi bolalar uchun A. Obidjonning “Dahshatli meshpolvon”, Po’lat Mo’minning “Bolajon, bolajonim”, Safar Barnoyevning “Tinchlikni ulug’laymiz”, H. Olimjonning “Oygul bilan Baxtiyor”, Shukur Sa’dullaning “Ayyor chumchuq” kabi asarlar tavsiya etiladi, chunki bu asarlarda bolalar tarbiyasi uchun milliy urf-odatlarimiz, do’stlik, yaxshilik va yomonlik kabi tushunchalar mujassamlashgan. Masalan: “Oygul bilan Baxtiyor” ertak-dostonida bosh qahramoni Oygulda ham o’z vataniga muhabbat, tinchliksevar g’oyalar, yaqinlariga muhabbat kabi g’oyalar singdirilgan. Bu asarni o’qigan o’quvchi ham bunday g’oyalarni anglab yetadi va bolaning tarbiyasiga o’z tarbiyaviy samarasini beradi.

Xulosa qilib aytganda, bolalar kitobxonligida bolalar adabiyoti bolalarni marifatga yetaklash bilan birga bolalarni o’z vataniga muhabbat kabi muqaddas tushunchalarni shakillantiradi. Kitob bilan oshno bo’lgan bola mulohazali, bilimli, yuksak tafakkuri bilan boshqalardan ajralib turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

- 1.R. Mavlonova, B. Normurodova, N. Rahmonqulova, «Tarbiyaviy ishlar metodikasi» o'quv qo'llanma, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Toshkent: «Tib kitob» nashriyoti, 2010. 216 bet.
- 2.Tuxtayev.O.X Tarbiya jarayonida milliy qadriyatlarni o'rni. Uslubiy qo'llanma. Toshkent: «QAMAR MEDIA», 2022.- 78 b
- 3.Jumaboyev M. O'zbek bolalar adabiyoti, T.: 2004 yil
- 4.Musurmonova O. "Ma'naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi" - T: 1996 y
- 5.Mavlonova R.A., To'raev O.T., Xasanboeva O, Xolikberdiev K.M. - «Pedagogika» T., «O'qituvchi» - 1998 y.
- 6.Qodirov B.G. Komil inson tarbiyasining pedagogik asoslari. Toshkent «Mexnat» 2001 yil.